

ILK O'RTA ASRLAR FAN VA MADANIYAT RIVOJI

TAFU "Tarix va filologiya" yo'nalishi
III bosqich talabasi **Amandullayeva Gulnigor**
gamandullayeva@gmail.com

Anatosiya

Ushbu maqolada, ilk o'rta asrlar davrida ta'lim, fanlarning o'qitilishi va madaniyat haqida so'z boradi. Bu davrda Sharq va G'arb olimlari ilm-fan, adabiyot, me'morchilik, san'at va falsafa sohalarida muhim yutuqlarga erishdilar. Ayniqsa, islom olamida tibbiyot, matematika, astronomiya va geografiya sohalarida buyuk kashfiyotlar qilindi. Bu ilmiy va madaniy meros keyingi davr sivilizatsiyasining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Ilk o'rta asrlar, fan, madaniyat, ilmiy meros, islom olami, Sharq va G'arb, taraqqiyot.

Анатосия

В данной статье рассматриваются образование, преподавание наук и культура в раннем Средневековье. В этот период восточные и западные учёные добились значительных успехов в области науки, литературы, архитектуры, искусства и философии. В частности, в исламском мире были сделаны великие открытия в области медицины, математики, астрономии и географии. Это научное и культурное наследие оказало большое влияние на формирование последующих цивилизаций.

Ключевые слова: Раннее Средневековье, наука, культура, научное наследие, исламский мир, Восток и Запад, развитие.

Annotation

This article discusses education, the teaching of sciences, and culture in the early Middle Ages. During this period, Eastern and Western scholars made significant advances in the fields of science, literature, architecture, art, and philosophy. In particular, great discoveries were made in the fields of medicine, mathematics, astronomy, and geography in the Islamic world. This scientific and cultural heritage had a great influence on the formation of later civilizations.

Keywords: Early Middle Ages, science, culture, scientific heritage, Islamic world, East and West, development.

Kirish

Ilk o'rta asrlar (V-XI asrlar) insoniyat tarixining muhim davrlaridan biri hisoblanadi. Bu davr qadimgi sivilizatsiyalar (Rim, Yunoniston, Fors imperiyasi)ning barham topishi bilan boshlanib, yangi davr – Yangi davr sivilizatsiyalariga zamin

yaratgan. Ushbu davrda madaniyat va ilm-fan o'ziga xos tarzda rivojlangan bo'lib, ayniqsa, Sharq mamlakatlari yuksak yutuqlarga erishgan.

Ilk o'rta asrlarda madaniyat ko'proq diniy e'tiqodlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Turli dinlar insonlar hayotining markaziga aylanib, madaniyat, san'at va ilmiy izlanishlarga turtki bergan.

Sharq va G'arb madaniyatlari ilk o'rta asrlarda bir-biridan farqli yo'nalishda rivojlangan: Sharq mamlakatlari: Bag'dod, Samarqand, Buxoro, Damashq, Qohira kabi shaharlar ilmiy va madaniy markazlarga aylangan. Arab-musulmon olimlari matematika, astronomiya, tibbiyot, falsafa va geografiya sohalarida buyuk kashfiyotlar yaratganlar.

G'arbiy Yevropa: Rim imperiyasi qulaganidan keyin Yevropada diniy ta'sir kuchayib, madaniyat va san'at asosan diniy mavzularda shakllangan. Nasroniylik dini madaniy hayotning asosiy markaziga aylangan.

Vizantiya imperiyasi: Sharqiy Rim imperiyasi bo'lgan Vizantiyada yunon madaniyati va nasroniylikning uyg'unlashuvi ko'zga tashlangan. Bu davrda diniy me'morchilik va san'at gullab-yashnagan.

Bu davr madaniyatida me'morchilik, adabiyot, san'at va ilm-fan asosiy o'rin tutgan. Sharqda madrasalar, masjidlar va saroylar bunyod etilgan bo'lsa, G'arbda diniy katedralar va monastirlar qurilgan. Adabiyotda dostonlar, tarixiy asarlar va diniy qo'lyozmalar yaratilgan.

Ilk o'rta asrlar madaniyati xalqaro miqyosda ham o'zaro ta'sirda bo'lib, G'arb va Sharq o'rtasida savdo yo'llari orqali madaniy va ilmiy almashinuvlar amalga oshirilgan. Masalan, Buyuk ipak yo'li orqali Sharqning boy ilmiy merosi Yevropaga yetib borgan. Sharq olimlarining yunon va hind madaniyatini o'rganishi natijasida ko'plab ilmiy asarlar yaratildi va keyinchalik Yevropaga ham tarqaldi.

Ilk o'rta asrlar – insoniyat tarixida qadimgi davr (antika) va rivojlangan o'rta asrlar o'rtasida turgan davr hisoblanadi. Bu davr milodiy V asrning oxiridan XI asrgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Aynan shu davrda bir tomondan qadimgi sivilizatsiyalar barham topgan bo'lsa, boshqa tomondan, yangi davrlarning asoslari shakllana boshladi. Ilk o'rta asrlar tushunchasi asosan Yevropa, Sharq va Vizantiya tarixiga asoslanadi. Ushbu davrda qadimgi davrlardagi yirik imperiyalar – Rim imperiyasi, Parfiya, Kushon podsholigi, Guptalar davlati kabi davlatlar qulab, o'rniga yangi davlat tuzumlari vujudga keldi. Ushbu davrda tarixiy jarayonlar bir nechta asosiy o'zgarishlar orqali belgilangan:

1. Qadimgi Rim imperiyasining qulashidan keyingi tartibsizliklar – G'arbiy Yevropada barqaror siyosiy tizim yo'qolib, qabila ittifoqlari tashkil topgan.

2. Islom dinining vujudga kelishi va tarqalishi – VII asrda Muhammad (s.a.v.)ning payg'ambarligi bilan Islom dini jahon tarixiga katta ta'sir ko'rsatdi. Arab xalifaligi tashkil topib, Sharq dunyosida fan, madaniyat va san'at yuksala boshladi.

3. Yangi davlatlarning tashkil topishi – Yevropada franklar davlati, Vizantiyada Sharqiy Rim imperiyasi, Sharq dunyosida esa xalifalik kabi davlatlar hukmronlik qildi.

Ilk o'rta asrlar o'zining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va diniy jihatdan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Sharq dunyosida bu davr ilm-fan va madaniyat yuksalish davri bo'lsa, G'arbiy Yevropa tarixchilar tomonidan "qaranlik asrlar" deb atalgan. Ilk o'rta asrlarning boshlanishi va yakuni tarixiy hodisalar bilan belgilanadi. Bu davrning xronologiyasi quyidagicha:

1. Boshlanishi (V asr) 476-yil: G'arbiy Rim imperiyasining qulashi – Rim imperiyasi butun Yevropa bo'ylab bosqinlar natijasida parchalanib ketdi. German qabilalari Yevropa hududida yangi qirolliklar tuzdi. Rim imperiyasining qulashidan so'ng, qadimgi dunyo tuzumlari o'rniga yangi ijtimoiy va siyosiy tuzum – feodalizm shakllana boshladi.

2. Taraqqiyot davri (VII-IX asrlar) VII asr: Islom dini tarqalishi bilan Arab xalifaligi tashkil topdi va qisqa vaqt ichida katta hududlarni o'z tasarrufiga oldi. Islom madaniyati va ilm-fani gullab-yashnadi. VIII-IX asrlar: Karl Martel va Karl Buyuk hukmronligi davrida Franklar davlati Yevropada kuchli davlatga aylandi. Yevropada barqarorlik asta-sekin tiklana boshladi. Sharqda Bag'dod xalifaligi, Movarounnahr, Xuroson va boshqa hududlarda iqtisodiy va madaniy yuksalish yuz berdi.

3. Yakunlanishi (XI asr) Yevropada Buyuk islohotlar va feodalizmning keng rivojlanishi kuzatildi. Sharqda esa siyosiy bo'linishlar boshlanib, xalifalik kuchsizlana boshladi. XI asr oxirida Salib yurishlari boshlanib, G'arb va Sharq madaniy aloqalari yangi bosqichga ko'tarildi.

Ilk o'rta asrlar (taxminan V-X asrlar) davrida fan va madaniyatning asosiy markazlari asosan Sharq va G'arb dunyosida joylashgan edi. Bu davrda ayniqsa musulmon olamida ilm-fan, madaniyat va adabiyot rivoj topdi. Quyida ilk o'rta asrlar davridagi muhim fan va madaniyat markazlari haqida to'liq ma'lumot beriladi. Bunga misol tariqasida:

Bag'dod (Iroq)- markaz bo'lgan Bag'dod VIII asrda Abbosiylar davrida qurilgan va tez orada ilmiy va madaniy markazga aylangan. Bag'dod "Oltin davr"ni boshdan kechirgan bo'lib, bu yerda ko'plab olim va faylasuflar faoliyat yuritgan. "Baytul hikma" (Donishmandlar uyi): Xalifa Horun ar-Rashid va uning o'g'li Ma'mun davrida tashkil etilgan ushbu ilmiy markaz turli tillardagi (yunon, hind, fors) kitoblar tarjimasi bilan mashhur edi. "Baytul hikma"da 40 dan ortiq tarjimonlar qadimgi yunon tilidan, 14 nafar tarjimon sanskrit tilidan, 4 nafar tarjimon Xitoy tilidan ilmiy, tibbiy va falsafiy asarlarni arabchaga o'g'irgan. Bundan tashqari, lotin, suryoniy, ibroniy tillardan tarjimonlar bo'lgan. Ilmiy haqiqat diniy mansublikdan ustun qo'yilgan. Bu asar ma'jusiylarniki, bunisi kofirlarniki deb inkor qilinmagan. Ajdodlarimiz til o'rganib, ilm ortidan dunyoni kezzgan. Mahdudlik qobig'iga o'ralib qolmagan, turg'unlik,

mahalliychilik ularga yot bo'lgan.¹ Fan sohalari: Matematika, astronomiya, tibbiyot, falsafa, kimyo va geografiya kabi fanlar rivojlandi. Mashhur olimlar:

Al-Xorazmiy – algebra asoschisi va arifmetikani rivojlantirgan.

Ibn Sino – tibbiyot va falsafa ilmi yulduzi, “Tib qonunlari” asari dunyoga mashhur.

Al-Farg'oni – astronom va geograf, uning astronomiyaga oid kitoblari Yevropada ham mashhur bo'lgan.

Damashq (Suriya)- Damashq Umaviylar davrida xalifalik markazi sifatida tanilgan. Shahar o'rta asrlarda nafaqat siyosiy, balki ilmiy va madaniy markaz ham bo'lgan. Fanlar: Geografiya, tarix, arxitektura va san'at rivojlandi. Muhandislik va me'morchilik: Umaviy masjidi o'sha davrning muhim me'moriy yodgorligi hisoblanadi. O'sha davrdagi diniy, ilmiy va falsafiy masalalarning katta doirasi bo'yicha ma'ruzalar, bahs va munozaralar masjidlarda ham muhokama qilingan. XIV asrdagi mashhur sayyoh Ibn Battutaning yozishicha, Damashqdagi kitob bozori Ummaviylarning mashhur masjidi yonida joylashgan edi. U erda kitoblardan tashqari qamishdan qilingan qalamlar, siyoh, charm, qattiq va nafis qog'oz, elim sotilardi. An'anaviy ravishda musulmonlar o'z kitob to'plamlarini masjidlariga meros qoldirganlar.²

Qohira (Misr)- IX asr oxiri va X asr boshlarida Fotimiylar xalifaligi davrida Qohira yirik ilmiy va madaniy markazga aylandi. Al-Azhar universiteti: X asrda tashkil etilgan bo'lib, islom ilmlari va falsafaning eng yirik ta'lim muassasasi hisoblanadi. Matematika va tibbiyot: Misrlik olimlar qadimgi yunon va hind ilmlarini rivojlantirishda katta rol o'ynashgan.

Buxoro va Samarqand (Markaziy Osiyo) Markaziy Osiyo hududi ilk o'rta asrlarda islom madaniyati va ilmiy markazlari sifatida ajralib turadi. Buxoroda esa, IX-X asrlarda Somoniylar davrida «Sharqning Gavhar shahri» deb atalgan. Bu yerda ko'plab madrasa va kutubxonalar faoliyat ko'rsatgan. Mashhur olimlar:

Ibn Sino – tibbiyot va falsafada dunyo miqyosida tanilgan.

Rudakiy – fors-tojik adabiyotining otasi.

Samarqand: Astronomiya, matematika va boshqa fanlar markazi bo'lgan. Samarqandda keyinchalik Ulug'bek observatoriyasi qurilgan.

Kordova (Ispaniya)-Musulmonlar hukmronligi davrida Andalusiya (hozirgi Ispaniya) Yevropadagi yirik ilmiy va madaniy markazga aylangan. Kordova shahrida esa, o'sha davrning eng katta kutubxonalari joylashgan bo'lib, unda yuz minglab kitoblar saqlangan. Fanlar: Astronomiya, tibbiyot, matematika, falsafa, geografiya kabi sohalar rivoj topgan. Mashhur olimlar:

Az-Zahroviy – jarrohlik fanining asoschisi.

¹ O. R. NAZAROV MUSULMON RENESSANSI DAVRIDA O'RTA OSIYODA FAN VA MADANIYAT RIVOJI TARIXI (DARSLIK) T:2023

² O. R. NAZAROV MUSULMON RENESSANSI DAVRIDA O'RTA OSIYODA FAN VA MADANIYAT RIVOJI TARIXI (DARSLIK) T:2023

Ibn Rushd (Averroes) – Aristotel falsafasini sharhlagan mashhur faylasuf.

Nishopur (Eron) -Nishopur X asrda Somoniylar va G'aznaviylar davrida yirik ilmiy va diniy markaz bo'lgan. Adabiyot va falsafa: Sharqda falsafa, adabiyot va tasavvuf rivojlangan. Mashhur shaxslar:

Abu Rayhon Beruniy – tarix, geografiya, astronomiya va matematika sohalarida yirik olim.

Omar Xayyom – mashhur matematik, astronom va shoir. Bo'lajak olim 10 yasharligidayoq arab tilini o'rganadi, 2 yildan so'ng esa Nishopur madrasasi talabasiga aylanadi. U islom huquqi va tibbiyoti kursini a'lo darajada tamomlab, hakimlik (shifokor) malakasiga ega bo'ladi. Ammo tibbiy amaliyot Umarni unchalik qiziqitmasdi, shuning uchun bilim olishni davom ettirishga qaror qiladi. Xayyom musulmon madaniyatining mashhur arbobi Sobit ibn Harroniydan tahsil oladi. Hali Nishopurda bo'lgan paytida yunon matematiklari asarlarini o'rganib, Yevklidning mashhur "Negizlar" asari tarjimasini o'qiydi. Biroq 16 yoshida hayotidagi eng og'ir judolikka uchraydi: epidemiya paytida avval otasi, biroz vaqt o'tgach onasi vafot etadi. Umar ota uyi va ustaxonani sotib, o'sha paytda Sharqda tan olingan ilmiy-madaniy markaz — Samarqandda o'qishni istab, u yerga jo'nab ketadi. Samarqandda dastlab madrasalardan biriga talaba bo'lib o'qishga kiradi.³

Qohira va Aleksandriya (Misr) Aleksandriya qadimgi davrdan beri fan va madaniyat markazi hisoblangan. Islom olamida ham u o'zining kutubxonalari bilan mashhur bo'lgan. Aleksandriya va Qohira mintaqadagi ilmiy ta'limni davom ettirgan.

Bundan tashqari, Uyg'onish davri (Renessans) — Markaziy Osiyo, Eron, Xitoya va G'arbiy Yevropada yuz bergan alohida madaniy va tafakkuriy taraqqiyot davri. „Renessans“ atamasi dastlab Italiyadagi madaniy-ma'naviy yuksalishga nisbatan qo'llangan, uni o'rta asrchilik turg'unligidan yangi davrga o'tish bosqichi deb baholaganlar. Renessansning asosiy alomatlari: tafakkurda va ilmu ijodda dogmatizm, jaholat va mutaassiblikni yorib o'tib, insonni ulug'lash (qarang Gumanizm), uning iste'dodi, aqliyfikey imkoniyatlarini yuzaga chiqarish; antik davr (yunonrum) madaniyatiga qaytib, uni tiklash, boyitish; cherkov sxolastikasidan qutulib, adabiyot va san'atda dunyoviy go'zallik, hayot taronalarini qizg'in kuylash; inson erki, hurfikeylik uchun kurashish. Buning natijasi o'laroq, ijodiy qudrat va tafakkur kuchini namoyish etadigan ulug'vor badiiy asarlar, salobatli binolar yaratildi, ilmfan rivojlandi. Bundan tashqari, bir qancha olimlar tomonidan alohida ta'riflar ham berishgan. Misol uchun, G'arb olimlaridan biri, xususan, nemis sharqshunosi I.Fyuk, Musulmon Renessansi mohiyatini "u asli islomgacha, avvalo ellinistik yo'nalishning tiklanishi bo'lgan", deb ta'rif etadi⁴. Nazarimizda, G'arb olimlarining Musulmon Renessansi deb atalgan tarixiy-madaniy hodisaning mazmun-mohiyatini ochib berish borasidagi

³ <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/umar-xayyom/>

⁴ Қаҳанр: Fuck J. / Die arabischen Studien in Europe.-Leipzig., 1955.-S. 289.

qiziqarli va muhim ahamiyatga ega bo'lgan xulosasiga dastlab R.Fray kelgan. Unga binoan, X va XI asrlarda gullab-yashnagan Renessansning mazmuni Eron va O'rta Osiyo hududlaridagi umumiy madaniy yuksalish va ravnaq bilan bog'langan bo'lib, uni butunlay qadimgi yunon madaniyati, xususan, ilm- fanining tiklanishi bilan bog'lamaslik kerak⁵.

Yevropa shoirlariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning har birida o'zgacha olam, o'zgacha his mujassamdir. Misol uchun:

Italiyan shoirlari: Petrarka va Dante, rassom Jotto, adib va mutafakkirlar Bokkachcho, Ariosto, Tasso, Byome Renessans g'oyalarining jarchilari bo'lib maydonga chiqdilar. Keyinchalik Michelangelo, Rafael, Shakespeare, Miguel de Cervantes Yevropaning turli mamlakatlarida buni davom ettirdilar. Ammo Renessans, ya'ni Uyg'onish faqat Yevropa hodisasi emas.⁶

Francesco Petrarca (1304–1374) — italyan shoiri, faylasuf va insonparvar, Uyg'onish davri adabiyotining yirik vakillaridan biri hisoblanadi. U “insonparvarlik otasi” deb ataladi va adabiy faoliyati bilan Yevropada Uyg'onish davrining boshlanishiga zamin yaratgan. Petrarca lotin va italyan tillarida ijod qilgan, uning she'riyati insoniy tuyg'ular, muhabbat va tabiatni tasvirlash bilan ajralib turadi. Francesco Petrarca 1304-yilda Italiyaning Arezzo shahrida tug'ilgan. Uning oilasi siyosiy sabablar tufayli Florensiyadan haydalgan edi. Petrarca yoshligida huquqshunoslikni o'rgangan bo'lsa-da, unga adabiyot va antik davr yozuvchilari ko'proq qiziq edi. Petrarca, ayniqsa, o'zining “Canzoniere” (“Qo'shiqlar kitobi”) nomli asari bilan mashhurdir. Ushbu to'plamda uning sevimli ayol — Laura ga bo'lgan samimiy muhabbati kuylangan. Francesco Petrarca Yevropa adabiyotida “Lirik she'riyat otasi” deb hisoblanadi. Uning ijodi Dante Aligyeri va Giovanni Boccaccio kabi boshqa Uyg'onish davri adiblarining faoliyatiga ta'sir o'tkazgan. Petrarca inson tuyg'ularining murakkabligini badiiy shaklda ifoda etish bilan tanilgan va uning she'rlari Yevropada lirik poeziyaning rivojlanishiga katta turtki bergan.⁷

Ludoviko Ariosto (1474 yil 8 sentyabr – 1533 yil 6 iyul) italyan shoiri edi. U “Orlando Furioso” (1516) romantik dostonining muallifi sifatida tanilgan. Matteo Mariya Boardoning “Orlando Innamorato” asarining davomi bo'lgan she'rda Karl, Orlando va Franklarning sarguzashtlari, ular sarasenlarga qarshi ko'plab yon uchastkalarga bo'lingan holda jang qilishlari tasvirlangan. She'r ritsarlik an'anasining satirasiga aylantiriladi⁸. Ariosto she'ni Otta va Rima qofiya sxemasida yaratdi va butun ish davomida hikoya sharhini kiritdi. Ariosto shuningdek, insoniyatning Xudoga bo'ysunish roliga emas, balki uning kuchli tomonlari va salohiyatiga e'tibor qaratishni

⁵ Қапан: Frye R. / Notes on Renaissance of the 10 th and 11 th. Centuries in Eastern Iran //Central Asiatic journal – Vol. 2 –P. 137.

⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/Uyg%CA%Bonish_davri

⁷ Xlodovskiy R. I., Franchesko Petrarka. Poeziya gumanizma, M., 1974.

⁸ Charles P. Brand, Ludovico Ariosto : a preface to the 'Orlando furioso', Edinburgh: Edinburgh University Press, 1974.

tanlash uchun “gumanizm” (italyancha, umanesimo)⁹ atamasini ishlab chiqdi. Bu Uygʻonish davri gumanizmga olib keldi.

Xulosa

Ilk oʻrta asrlar davri Sharq va Gʻarb tarixida muhim oʻrin tutadi. Ayniqsa, Sharqda ilm-fan, tibbiyot, matematika va astronomiya kabi sohalarda ulkan yutuqlar qoʻlga kiritilgan. Bu meros keyinchalik butun insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilgan. Ilk oʻrta asrlar madaniyati insoniyat tarixida katta oʻrin tutib, keyingi davrlardagi Uygʻonish va Yangi davr madaniyatining poydevorini yaratgan. Xususan, Sharq mamlakatlarining ilmiy va madaniy merosi keyinchalik butun dunyo sivilizatsiyasi uchun bebaho boylik boʻldi. Sharq mamlakatlari – ayniqsa Bagʻdod, Buxoro, Samarqand, Kordova kabi shaharlarda ilm-fan gullab yashnadi. Bu davrda musulmon olimlari yunon, hind va boshqa qadimgi madaniyatlarning ilmiy merosini oʻrganib, uni boyitdilar hamda Yevropa Uygʻonish davrining rivojlanishiga katta hissa qoʻshdilar. Gʻarb dunyosida esa Rim imperiyasi inqirozidan soʻng maʼlum darajada ilmiy va madaniy susayish kuzatildi. Ilk oʻrta asrlar davri insoniyat tarixida muhim oʻtish bosqichi hisoblanadi. Bu davrda bir tomondan qadimgi davr madaniy merosi saqlanib qolsa, boshqa tomondan yangi ijtimoiy va siyosiy tizimlar shakllana boshlagan. Ayniqsa, Sharq dunyosida ilm-fan va madaniyatning gullab-yashnashi kelajak uchun mustahkam zamin yaratdi. Yevropada esa diniy taʼsir kuchayib, madaniy rivojlanish sekinlashgan boʻlsa-da, keyinchalik bu davr keyingi uygʻonish jarayoniga tayanch boʻldi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abduhalimov B. A. “Bayt al-hikma” va Oʻrta Osiyo olimlarining Bagʻdoddagi ilmiy faoliyati: (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar). -T., Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004.
2. O. R. Nazarov musulmon renessansi davrida oʻrta osiyoda fan va madaniyat rivoji tarixi (darslik) t:2023
3. Xlodovskiy R. I., Franchesko Petrarka. Poeziya gumanizma, M., 1974.
4. Charles P. Brand, Ludovico Ariosto : a preface to the ‘Orlando furioso’, Edinburgh: Edinburgh University Press, 1974.
5. Giulio Ferroni, Ludovico Ariosto, Roma: Salerno Editrice.
6. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va Oʻrta Sharqning falsafiy tafakkuri. T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2010
7. Қапанг: Fuck J. / Die arabischen Studien in Europe.-Leipzig., 1955.-S. 289.

Internet saytlari:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Uyg%CA%BBonish_davri
2. <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/umar-xayyom/>

⁹ Giulio Ferroni, Ludovico Ariosto, Roma: Salerno Editrice,